

SOVET HOKIMIYATINING YURTIMIZDA ISLOM DINI VA UNING QADRIYATLARIGA MUNOSABATI (1930-40-YILLAR)

Doniyorov Nosirjon Abduxoliq o'g'li
O'zR FA Tarix instituti tayanch doktoranti.
Email: nosirdoniyorov28@gmail.com,

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning 30-40 yillarida sovetlar hokimiyatining muqaddas islom dini va u bilan bog'liq bo'lgan qadriyat va an'analar ustidan yurgizgan siyosati ilmiy adabiyotlar, arxiv ma'lumotlari, davriy matbuot maqolalari orqali yoritiladi. Shuningdek, mazkur siyosatning o'tkazilish sabablari, chora tadbirlari hamda natija-oqibatlarini yoritib berishga muallif tomonidan urinilgan.

Kalit so'zlar: Islom dini, qadriyatlar, hayit, ro'za, masjid, radio, klub, qiroatxona, qizil choyxona.

ОТНОШЕНИЕ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ К ИСЛАМУ И ЕГО ЦЕННОСТЯМ В НАШЕЙ СТРАНЕ (1930-40-Е ГОДЫ)

Аннотация. В данной статье на основе научной литературы, архивных данных и статей периодической печати освещается политика советской власти в отношении нашей святой религии ислама, ценностей и традиций в 30-х и 40-х годах XX века. Кроме того, автор попытался объяснить причину такой политики, меры по ее реализации, а также результаты и последствия.

Ключевые слова: исламская религия, ценности, Ид, пост, мечеть, радио, клуб, читальный зал, красная чайхана.

THE ATTITUDE OF THE SOVIET GOVERNMENT TO ISLAM AND ITS VALUES IN OUR COUNTRY (1930-40S)

Abstract. In this article, the policy of the Soviet authorities on our holy religion of Islam and the values and traditions in the 30s and 40s of the 20th century is covered through scientific literature, archival data, and periodical press articles. In addition, the author tried to explain the reason of this policy, the implementation measures and the results and consequences.

Keywords: Islamic religion, values, Eid, fasting, mosque, radio, club, reading room, red teahouse.

Madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lgan islom diniga o'zbek xalqi ming yillardan beri sig'inadi. Islom dini o'zbek xalqining butun ruhiyatiga va turmush tarziga singib ketgan. Boshqacha qilib aytganda "barcha milliy qadriyatlarimiz islom dinining ta'sirida shakllangan"[4, 94-bet.]. Mana shuning uchun ham biz haqli ravishda islom dinini milliy qadriyatlarimiz deb ayta olamiz. Oktyabr to'ntarishidan so'ng ular o'zbek xalqi diniy va boshqa milliy qadriyatlarini kamsitish, toptash yo'llarini tutishdi. Sabab shuki, mustamlakachilar xalqimiz milliy hamda diniy qadriyatlarimizni o'zgartirmasdan turib diyorimizga uzoqroq egalik qila olmasliklarini yaxshi bilishardi. Aslida milliylikka qarshi kurashgan shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat uchun kurash dasturilamali ana shu o'ta mudhish vazifani bajarishda xizmat qildi.

Islom dini va uning qoidalari cheksiz tahqirlandi, namoyondalari esa jiddiy quvg'in ostiga olindi. Bu o'z navbatida ma'naviyat va madaniyatga nihoyatda yomon ta'sir qildi. Partiya va davlat arboblari orasida islom dini O'rta Osiyodagi mahalliy millatlarning mustamlakachilik zulmiga va ruslashtirishga qarshi rahnamosi degan fikr mavjud edi. Shu sababdan ham din va ruhoniylarga qarshi 30-yillarda ochiqdan ochiq sovuq urush e'lon qilindi. Dinga xurmatsizlik shu darajaga borib yettiki, hatto mustabid hokimiyati asrlar hukm surib kelgan marosim: aholi musulmonlarining masjidga qatnashi va namozni xurofiy masala deb e'lon qildi. Bu masala "ongsiz mehnatkashlar"ni tobora qashshoqlik va razolatga tashlaydi, ularni borgan sayin madaniy va iqtisodiy tomonlama pastlashtiradi degan uydirma ideologiyani ishlab chiqishdi [11, 41-bet.]. O'zbekistonda 1931-yil 13-fevral sanasida "Kurashchan xudosizlar uyushmasi" tuzilib dinga qarshi harakatlarni kuchaytirishdi [5, 109-bet.]. Mazkur jamiyati qabul qilgan qarorlarida asosan diniy va milliy bayramlar, marosimlarga qarshi, muqaddas qadamjolarga qarshi qatag'on e'lon qilgan edi. O'sha kezlarda ruhoniylarning katta qismi konsentratsion lagerlarga jo'natilgan [2, 29-bet.]. Biroq, ular yurgizgan boshqa masalalar: yosh qizlarni turmushga berish, qalin olish, ayollarni xo'rlash hollariga qarshilik ko'rsatish va chora-tadbirlar [12, 49-50 betlar.] orqali jamiyat rivojlanishi uchun o'ta ijobiy natijalar ham yuzaga kelganiga tarix guvoh.

Ma'lumki, 1937-yil O'zbekiston SSR konstitutsiyasining 123-moddasida shunday deyilgan edi: "Fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston SSRda diniy muassasalar davlatdan, maktablar esa masjidlar va diniy muassasalardan ajratilgan. Ibodat erkinligi va dinga qarshi tashviqot erkinligi barcha fuqarolar uchun tan olinadi[9, 123-modda]. " Amalda esa mutlaqo boshqa "qonun" o'rnatilgan edi.

Dinimizda buyurilgan ro'za tutish insonning ham ma'naviy, ham jismoniy salomatligi uchun foydalari cheksizdir. Hatto boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar ham uning foydalarini o'rganishib, e'tirof qilishmoqdalar va o'zlari ham amalda

foydalanishmoqdalar. Ammo ming afsuslar bo'lsinki mustabid tuzimi davrida ro'za zararlari haqida turli jurnal va gazetalarda maqolalar e'lon qilindi. Inson salomatligi uchun[3, 3-bet.] hamda jamiyat rivoji uchun zararlari[1, 2-bet.] to'qib chiqarildi. "Xudosizlar jamiyati" buyurosining 1931-yil oktyabr oyida "1931-yil 14-oktyabridan to 1932-yil 9-fevraliga qadar uch oylik davr uchun ro'za va rojdestvoga qarshi kompaniya plani"[8, 1-bet.] e'lon qiladi. Bu bilan nafaqat musulmon ruhoniylargagina qarshi turmasdan balki rajdestvoni nishonlovchi xristian ruhoniylarga ham qarshi turish edi. Hatto diniy bayram kunlari ham yuz foiz aholini paxta terimiga haydaladi. Ro'za va boshqa diniy bayramlarni yomonlab 1938-yil 4-fevralidan zavod, kolxoz, MTS, klub radio uzellari kabi mahalliy radio tarmoqlaridan chiqishlar muttasil ravishda e'lon qilinib turiladigan bo'ldi[6, 23-24 betlar.]. Biroq, haqiqat egiladi, bukiladi, lekin aslo sinmaydi deganlaridek hozirgi zamon ilm-fani bu kabi aksilmilliy tashviqotlarning g'ayriilmiy ekanligini allaqachon isbotlagani hech kimga sir emas, albatta.

Yurtimizda ramazon oyini har vaqt milliy an'ana va qadriyatlarimiz ruhida har tomonlama munosib tarzda mehr-oqibatli, tinchli o'tkazib kelingan. Masjidlarda tozalik va obodonlashtirish ishlari o'tkazilib, taroveh namozlari ommaviy tarzda tartibli o'tkazilgan. Ramazon oyi ulug'vorligi va alohidaligi shuki, u sahovat oyi ham hisoblangan. Yordamga muhtoj oilalar har tomonlama qo'llab-quvvatlangan. Ammo, 1945-yil ramazon oyida Xorazm Polvon Ota masjidida nazir tariqasida 50 ga yaqin yig'ilgan qo'y-echki urushda xalok bo'lgan yigitlar oilasiga topshirish reja qilinganligi [14, 31-bet.], ammo mulk talon-taroji bo'lganligi, aniqrog'i, yordamga muxtoj oilalarga yetib bormasdan katta qismi – 39 jonliq (561 kg. go'sht hisobida) go'sht idorasi tomonidan o'zlashtiriladi [14, 39-bet.] va na davlatga, na xalqqa beriladi.

Xorazm vohasidan chetlashmagan holda yana bir ishni ko'rib chiqsak: Arxiv hujjatlariga ko'ra, Xiva shahridagi "Polvon Ota" mozoridagi 30 ga yaqin gilam va sholchalari har kimlarning qo'lida tutilmoqdaligi haqida aytiladi. Bu jamoat mulkini talon-taroj qiluvchi kimsalar ham yuqorida ko'rib chiqilgan ish kabi davlat amalida o'tirgan muttahamlar bo'lib chiqadi. Masalan, qidiruvda aniqlanishicha, Uzkomstarisning vakili Titlovada 3 gilam, 3 sholchani, yana bir Uzkomstaris vakili Yusupov esa 2 polos, 2 g'oli [14, 39-bet.] o'zining uyida saqlayotganligi ma'lum bo'ladi.

Aslida mana shunday faqat o'zining qornini o'ylaydigan, jamiyat uchun qayg'urmaydigan kimsalar tarbiyasi uchun dinning roli suv bilan havo kabidir. Ha yuqoridagi go'sht idorasi va Uzkomstaris xodimlari sovet hukumati targ'ib qilayotgan milliy madaniyat va dindan holi jamiyat yetishtirib chiqayotgan xodimlar edi.

1936 va 1937-yillar masjidlarni buzish va yopish, ular binosini esa turli ko'ngilochar joylar, sovetlar targ'ibot-tashviqotiga xizmat qiluvchi joylarga

aylantirildi. Masalan, birgina Farg‘ona misolida oladigan bo‘lsak Kuybishev tuman kengashining 23-may 1936-yildagi joylardagi masjidlarni yopish va uni klublarga o‘tkazish to‘g‘risidagi arizasini hukumat qabul qildi hamda qanoatlantirildi. Bu murojaat aholining umumiy yig‘ilishi, tuman kengashi tashabbusi bilan chiqdi. Kuybishev tuman ijroiya qo‘mitasining iltimosi qanoatlantirildi [10, 10-bet.] . Shuningdek, xuddi shu yilning 27-sentyabrida To‘raqo‘rg‘on tuman ijroiya qo‘mitasining “Shaxon”, “Buramatut” va “Xalmatov” qishloq fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan 3 ta masjidni yopish va buzish, masjidlar materiallaridan madaniyat uylarini qurish uchun foydalanishga ruxsat berish to‘g‘risida [10, 9-bet.], hamda Baliqchi Orjanikidze kolxozi 62 nafar kolxoz a‘zosi talablari bilan 2 ta masjidni bog‘cha va yasli qilishga so‘ragan talabi qabul qilindi [10, 39-bet.]. Mazkur ma‘lumotlar xuddi xalqning o‘zi masjidlarni hukumatdan iltimos qilingandek taassurot beradi odamga, biroq buni tasdiqlaydigan ommaning yozma rozilik xatlari arxiv hujjatlarida topilmadi.

1937-yilning kuzida ham bu qabixliklar Toshkentda ham qilinadi. 27-sentyabrida Toshkent shahri Stalin rayonidagi “Telman”, “Kirov” va “Birinchi may” nomli mahalla guzarlarining shu mahallalardagi masjidleri yopilib, ularning binosi klub uchun beriladi [11, 96-bet.] . So‘ngra roppa-rosa bir oy o‘tgach, ya‘ni 27-oktyabr O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti prezidumi qoshidagi Diniy ishlar komissiyasi qarorlari bilan Toshkent shahar Stalin rayonidagi Tikanli Mozor mahalla masjidini [11, 3-bet.] hamda Uchqun mahalla masjidini [11, 4-bet.] mahallaning “madaniy o‘chog‘i” – klub uchun beriladi.

1943-yil may oyida I.V.Stalin g‘arbdagi ittifoqchilari ko‘nglini tinchitish va tashqi dunyoda demokratiya uchun kurashuvchi davlat bo‘lib ko‘rinish maqsadida Kommunistik Internatsionalni tugatish, vijdon erkinligi, diniy marosimlar uchun qo‘yilgan to‘siqlarni olib tashlashga to‘g‘ri kelgan edi. Dinga qarshi taribot va tashviqot ishlari ham (“Xudosizlar uyushmasi” 1929-1941 yillar faoliyat yuritgan edi.) to‘xtatildi. 1943-yilning oktyabr oyida shayx Eshon Boboxon ibn Abdulmajid boshchiligida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy diniy boshqarmasi tuzildi [7, 103-bet.]. Tashkilot urush yillari fashizmga qarshi kurashish uchun din ahllarini birlashtirdi, front ortida mehnat qilib askarlar uchun mablag‘ yig‘di.

Ammo sovet hokimiyatining bu “ehtiyotkorlik” siyosati uzoqqa bormadi. 1945-50 yillarda diniy muassasa va tashkilotlar faoliyati yana qaytadan qattiq nazorat ostiga olindi. 1945-yil ma‘lumotlariga ko‘ra Farg‘ona viloyatida norasmiy ravishda 58 masjid ochilganligi hukumat tomonidan aniqlangach, shulardan 15 tasi yopiladi [14, 63-bet.] . Aynan shu yili diniy marosimlarni bajarishga to‘sqinlik holatlari ham ko‘paydi. Farg‘ona shahridagi Pomir, Komsomol ko‘chasidagi Xonaqo machitini O‘zglavxleb direktori Matqosimov sotib oladi va u yerda non maxsulotlarini ishlab chiqarish

shaxobchasiga aylantirmoqchi bo'radi. U hayit nomozini o'qigani kelgan aholiga: "Masjidni bo'shating, yo'qsa militsiya olib kelaman," – deya haydab soladi. Kuybishev rayispolkomi raisi Qobilov esa, hayit nomoziga yig'ilgan dindorlarni militsiya orqali tarqatib yuboradi. Bog'dod rayispolkomi raisi ham nomoz o'qigani kelganlarni ham tarqatib yuborgan [14, 64-bet.] . Xullas, o'z xalqimizdan chiqqan ayrim sho'ro gumashtalari hayit nomozini o'qishlikka faol qarshilik ko'rsatganligi achinarli holdir.

Ota-bobolarimiz an'anaviy bayram, marosimlarni o'tkazishni bir zum ham to'xtatgan emas, yashirin tarzda bo'lsa ham davom etgan. Buni quyidagi hujjat ma'lumotlari tasdiqlaydi: Marg'ilon ispolkomi hisobotida Marg'ilon shahrida 4 masjid va ibodatxona bor deyiladi, aslida esa 18 ta masjid borligi aniqlandi". Shuningdek, Qo'qon shahrida hukumatining diniy ishlar bo'yicha qarorlarini buzib 10-uchastkada Nizamutdinova Risolatoy diniy maktab ochib olgan. Marg'ilon shahri(Skandar va Podshox mahallalarida)da Halcha otincha diniy o'qitish ishlarini olib borgan. Yakubov Oxundjon Qizil oktyabr mahallasida maktab ochib olgan. Qo'qon shahrida Hamidjon qori, Abdulla Kalon, Madaliyeva Karomatoylar ham diniy maktab ochib olishgan [14, 63-64 betlar.] . Bu insonlarning barchasi haqiqiy vatanparvar kishilar bo'lib, o'zbek xalqining metin irodasini namoyon qilishganligini va ateistik jamiyat qurilayotgan sharoitda ham iymonlariga xiyonat qilishmaganligini bilib olamiz.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash muhimki, dinimizga nisbatan o'tgan asrning bir necha o'n yilliklari davomida bir tomonlama qarashlar hukm surib, zo'rlik bilan tiqishtirilgan dinga qarshi g'oyalar hukmronlik qilib kelganini ham guvohi bo'ldik. Sabab shundaki, dinning xonliklar davri va undan ham oldinroq O'rta Osiyoda siyosiy harkatlardagi mavqeyi juda baland edi. Aynan shuning uchun ham sovet tuzmi hukmronligi davrida go'yoki islom dini va madaniyati o'tmishda fan, adabiyot, san'atning dushmani deya noto'g'ri baholandi. Ularning g'oyasi bo'yicha Oktyabr to'ntarishi islom dinining ijtimoiy ildizini tugatdi va xalqlarni ozodlikka chiqardi. Fikri ojizimcha bu qarashlar aslida ma'naviy so'qirlik, haqiqatni soxtalashtirish edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdushukurov U. Qurbon hayiti – mehnatkashlar dushmani. 1941yil. 3-yanvar. №2.
2. Alimova D., Mustafayeva N. Sovet davrida O'zbekistonda madaniy-tarixiy merosga munosabat: intilishlar va muammolar. O'zbekiston tarixi. №1/2013-yil.
3. Ikromov. Ro'za progressiv kishilikning dushmanidir. Qizil O'zbekiston. 1940-yil, 3 – oktyabr.
4. Qahhorov X. Akademik Ibrohim Mo'minov va uning o'zbek xalqi milliy madaniyati taraqqiyotidagi o'rni. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand. 1999.
5. Rahmonov T. XX asrning 30-yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy va madaniy hayot (muammo va yechimlar). Buxoro. 2011-yil.
6. SSSR kurashchan xudosizlar soyuzi markaziy sovetining kengaytirilgan IV plenumi qarori. O'zSSR Davlat nashriyoti. Toshkent. 1939-yil.
7. Salmonov A.M. O'zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydirma va tarix haqiqati. "Tafakkur". Toshkent, 2015.
8. O'zbekiston kurashchan xudosizlar soyuzining tashkilot buyurosi. Dinga, ro'zaga qarshi kurashni kuchaytiraylik. Qizil O'zbekiston. 1931-yil, 23-noyabr.
9. O'zbekiston Milliy arxivi kutbxonasi. O'zbekiston SSR konstitutsiyasi. 123 modda. 1937-yil.
10. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zbekiston MA). 86-fond, 1-ro'yxat, 1500-ish.
11. O'zbekiston MA. 86-fond, 1-ro'yxat, 1501-ish.
12. O'zbekiston MA. 86- fond, 10-ro'yxat, 1427-ish.
13. O'zbekiston MA. 2456- fond, 1-ro'yxat, 9-ish.
14. O'zbekiston MA. 2456- fond, 1-ro'yxat, 46-ish.